# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№10



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 301 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA....13
**Muxiddin Kalonov**

MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI....19
**Quliyev Begimqul Melikovich**

SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI....24
**Sabirova Oysuluv Shonazarovna**

KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI....30
**Musayeva Shoira Azimovna**

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI....35
**Alabayev Sobitxon**

MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI....40
**Zakirov Ansabxon Akaidinovich**

ПЕСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ....48
**Саидахмедова Аида Мирзаевна**

KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH....55
**Mirzayev Ozod Furkatovich**

AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL....59
**Qodirov Farrux Ergash o'g'li**

BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHIYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK....64
**Yuldashev Adhamjon Axadjonovich**

SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR....69
**Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li**

МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА....73
**Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович**

ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО....78
**Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна**

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI....84
**Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li**

TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH....90
**Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li**

O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR....96
**Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li**

YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR....102
**Allayarov Suxrob Rustamovich**

O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI....107
**Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

HUDUDIY IJTIMOIY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURSLARI OMILLARI ........ 114
**Durumov Temur G'olibovich**

TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA) ........ 121
**Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li**

РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА ........ 134
**Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна**

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI ........ 139
**Yuldashev Iskandar Bahromovich**

YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 145
**Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li**

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR ........ 151
**Shaxinabonu Choriyeva**

AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI ........ 157
**Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna**

"YASHIL" ENERGIYA ISHLAB CHIQARUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 163
**Toshtemirov To'lqin Toirjonovich**

DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI ........ 166
**O. Nurmuradov**

TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI ........ 171
**Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li**

СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ........ 176
**Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович**

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI ........ 183
**Zarikeyeva Miyasar Maratovna**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI ........ 187
**Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi**

O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI ........ 192
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna**

O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI ........ 196
**Xuramov Zafar Rajabaliyevich**

PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI ........ 201
**Zakirov Abduazim Abdurashidovich**

НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ........ 206
**Махкамов Ибраим**

O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI ........ 213
**Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li**

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI ........ 217
**Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich**

DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI ........ 221
**Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li**

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA YERISHISHDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO‘LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA) ........................ 227
**Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich**

НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ............ 233
**Ягудин Дмитрий Рустамович**

RESURSLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO‘LLASH MASALALARI ........................ 240
**Nasimdjanov Yunusjon Zoxidovich**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO‘LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI ........................ 246
**Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich**

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA “YASHIL” MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI ........................ 250
**Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna**

INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI........................ 255
**Muzaffar Raximov**

UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI........................ 259
**Odamboyev Oybek Ravshanbek o‘g‘li**

INTERNATIONAL ORGANIZATIONS’ APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL ........................ 268
**Akhmadaliyeva Nikholakhon**

RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI........................ 273
**Vohobov Hikmatillo Ma’mirjon o‘g‘li**

ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА........................ 280
**Тохирова Гуллола Миркамоловна**

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA’LIMI BITIRUVCHILARINING O‘RNI ........................ 287
**Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich**

DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM ........................ 292
**Barno Erkayeva**

AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI........................ 296
**Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI



**Baymuradova Iroda Shermamatovna**
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
"Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi"
kafedrasi katta o'qituvchisi, i.f.f.d.
ORCID: 0009-0007-2301-6717

**Mardonova Zarifa Numonjonovna**
Samarqand agroinnovatsiyalar
va tadqiqotlar instituti
"Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi"
kafedrasi assistenti
ORCID: 0009-0002-4680-6416

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand viloyatining tog'li, cho'lli va sug'orma dehqonchilikka asoslangan tekislik hududlaridagi agroturizm obyektlarining 2032-yilgacha rivojlanish tendensiyalari ANNs modeli yordamida bevosita so'rovnoma hamda statistik davriy qatorlar ma'lumotlaridan foydalanib prognozlashtirilgan. Prognoz natijalari o'sib borish tendensiyasiga egaligi hamda 2032-yilgacha viloyatning tog'li hududlarida 30ta, sug'orma dehqonchilikka moslashgan hududlarda 27ta va cho'l-dasht hududlarida esa 23ta agroturistik obyekt tashkil etilishi ilmiy isbotlandi.

Kalit so'zlar: agroturizm, tog'li hududlar, sug'orma dehqonchilik hududlari, cho'lli hududlar, infratuzilma, raqamli texnologiyalar, ekologik barqarorlik.

Abstract: In this article, the development trends of agrotourism facilities in mountainous, desert and irrigated plain areas of Samarkand region until 2032 are forecasted using the ANNs model using direct survey and statistical time series data. It has been scientifically proven that the forecast results have an increasing trend and that by 2032, 30 agrotourism facilities will be established in mountainous areas of the region, 27 in areas adapted to irrigated agriculture, and 23 in desert-steppe areas.

Key words: agrotourism, mountainous areas, irrigated agriculture areas, desert areas, infrastructure, digital technologies, environmental sustainability.

Аннотация: В данной статье с помощью модели ИНС с использованием данных прямого опроса и статистических временных рядов спрогнозированы тенденции развития агротуристических объектов в горных, пустынных и орошаемых равнинных районах Самаркандской области до 2032 года. Научно доказано, что результаты прогноза имеют тенденцию к росту и что к 2032 году в горных районах области будет создано 30 агротуристических объектов, в районах, адаптированных к орошаемому земледелию – 27 и в пустынно-степных районах – 23.

Ключевые слова: агротуризм, горные районы, районы орошаемого земледелия, пустынные районы, инфраструктура, цифровые технологии, экологическая устойчивость.

## KIRISH

Agroturizm qishloq madaniyatini saqlash va sayyohlik takliflarini oshirishning samarali usuli sifatida ko‘rilmoqda [1]. Istiqbolda barqaror dehqonchilik amaliyotida, resurslarni saqlashda va mahalliy biologik xilma-xillikni muhofaza qilishda agroturizmni rivojlantirishga urg‘u berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agroturizm orqali ekologiyani saqlash va barqaror ishlab chiqarish amaliyotlari atrof-muhitga e’tiborli sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi [2], [3], [4].

Agroturizmga turistlarni jalb qilish uchun joylarda turar joy, ovqatlanish imkoniyatlari va tashrif buyuruvchilar uchun qulayliklarni oshirish muhim [5]. Buning uchun yuqori sifatli turar joy, qulay yo‘l va ovqatlanish joylarini tashkil qilish kerak. Kelajakdagi agroturizm korxonalari veb-saytlar, ijtimoiy media va onlayn buyurtma qilish tizimlari orqali raqamli ishlashni talab qiladi [6]. Shu bilan birgalikda raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish global auditoriyani jalb qilishi uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, agroturizmni rivojlantirishda mahalliy madaniyat, meros hamda an’analarni saqlash va targ‘ib qilishga urg‘u berilishi kerak. Bu mahalliy oshxona, hunarmandchilik va an’anaviy dehqonchilik amaliyotlarini o‘z ichiga oladi.

Oxirgi yillarda turizmning ushbu turi O‘zbekistonning turli hududlarida, xususan, Samarqand viloyatida alohida ahamiyat kasb eta boshladi [7]. Mintaqaning tabiiy-geografik xususiyatlari, boy madaniy merosi va qishloq xo‘jaligi salohiyati agroturizm obyektlari tashkil etish uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Shu bilan birga, Samarqand viloyatida agroturizmni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan prognozlar, ustuvor yo‘nalishlar va strategik choralarni ishlab chiqish hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — Samarqand viloyatida agroturizm obyektlarining hududiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va ushbu jarayonni tezlashtiruvchi hamda to‘sqinlik qiluvchi omillarni ilmiy asosda baholashdan iboratdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Istiqbolda agroturizmni rivojlantirishda infratuzilma va raqamli texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agroturizmni rivojlantirishdagi muvaffaqiyatning taxminan 50-60%i infratuzilma hissasiga to‘g‘ri keladi [8], raqamli texnologiyalar esa agroturizm loyihalari muvaffaqiyatiga 30-40% hissa qo‘shishi kuzatilgan [9].

Agroturizm sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu yo‘nalishning qishloq xo‘jaligi va turizmni uyg‘unlashtirish orqali iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishga katta hissa qo‘shishini ko‘rsatmoqda. Masalan, Ciolac va hammualliflari [2] agroturizmni qishloq hududlarining barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida baholab, bu jarayon qishloq madaniyatini saqlash va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Jahon tajribasida, xususan Italiya, Ruminiya va Afrikaning ayrim mamlakatlarida o‘tkazilgan tadqiqotlarda agroturizmni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun infratuzilma va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zarurligi qayd etilgan [4]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turizm loyihalarining muvaffaqiyatida infratuzilma 50–60 % gacha, raqamli texnologiyalar esa 30–40 % gacha ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, agroturizmni rivojlantirishda davlat qo‘llab-quvvatlovi va siyosiy barqarorlik muhim rol o‘ynaydi. Giaccio va hammualliflari [3] Italiya misolida qishloq xo‘jaligi siyosati va davlat dasturlarining agroturizm rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslagan. Shuningdek, Baipai va boshqalar [1]. barqaror agroturizmni ta’minlash uchun mahalliy hamjamiyat ishtiroki, ekologik muvozanat va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi uyg‘unlik zarurligini ta’kidlaydi.

O‘z navbatida, agroturizmni rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tanina va hammualliflari [6] Afrikadagi amaliyot asosida raqamli platformalar, onlayn bron qilish tizimlari va marketing vositalari agroturizm obyektlarining global bozorga chiqishida katta imkoniyat yaratishini ko‘rsatadi.

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Samarqand viloyatida agroturizmni rivojlantirishda ham aynan uchta asosiy omil: infratuzilma, raqamli texnologiyalar, va davlat qo‘llab-quvvatlovi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mahalliy madaniy meros va an’analarni turistik faoliyatga integratsiya qilish agroturizmni barqaror rivojlantirishning muhim shartlaridan biri sifatida qaraladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Samarqandda agroturizm obyektlari sonini oshirish va uni rivojlantirishning istiqbol parametrlarini baholash maqsadida tog‘li, cho‘lli va sug‘orma dehqonchilikka asoslangan tekislik hududlari alohida ajratib olindi va uning 2032-yilgacha rivojlanish tendensiyalari prognozi sun’iy neyron tarmog‘i (ANNs) modeli orqali baholandi.

Tahlil uchun ma’lumotlar Samarqand viloyatining Ishtixon, Samarqand, Oqdaryo, Payariq, Jomboy, Bulung‘ur, Toyloq, Urgut, Kattaqo‘rg‘on, Pastdarg‘om, Paxtachi, Nurobod tumanlaridan 2023-yil iyun-noyabr

oylarida so‘rovnoma va eksperiment o‘tkazish orqali to‘plandi. So‘rovnomada yuqorida keltirilgan hududlardan ixtiyoriy tanlanma asosida 153 nafar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi turli xo‘jaliklar hamda 210 nafar turistlar qamrab olindi. Ma’lumotlar Samarqand viloyatining tog‘li hududlar, sug‘orma dehqonchilik qilinadigan tekisliklar hamda cho‘l hududlariga ajratib olindi. Empirik tahlillarni amalga oshirishda R-4.4.1 dasturiy hisoblash paketidan foylanildi.

ANNs modeli  inson ongining oddiy matematik modellariga asoslangan prognozlash usullari hisoblanadi. Ushbu tahlilda respondentlarning bergan javoblaridan kelib chiqib prognoz parametrlari aniqlanadi va chiziqli bo‘lmagan parametrlar o‘rtasida murakkab bog‘liqliklarni aniqlashga imkon beradi. Model orqali respondentlarning bergan javoblarini neyron qatlamlarda tashkil etilgan “neyronlar” tarmog‘i deb hisoblash mumkin. So‘rovnomada berilgan savollar neyronlar qatlamining pastki va yuqorisida joylashgan bo‘lib, ular berilgan savollarga ikkilik javoblar (“ha” yoki “yo‘q”)ni asoslaydi.

Tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan biri Samarqand viloyatidagi agroturizm obyektlarining kelgusida rivojlanish tendensiyalarini aniqlashdan iborat bo‘ldi. So‘rovnomadan olingan ma’lumotlar turizm obyektlarini rivojlantirish uchun prioritetlarni belgilashga xizmat qildi, bu esa tadqiqotning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Maqolada yuqorida keltirilgan ANNs modeli yordamida ikki tartibdagi prognoz natijalari bevosita so‘rovnoma hamda statistik davriy qatorlar ma’lumotlaridan foydalanib amalga oshirildi.  Birinchi prognoz natijalari Samarqand viloyatidagi agroturizm obyektlarining 2032-yilgacha rivojlanish tendensiyalari prognozini R-4.4.1 dasturidan foydalangan holda baholandi. Samarqandning Boltiq dengizi[1] sathiga nisbatan hisoblaganda yuqori (tog‘li va tog‘ oldi hududlari), o‘rta (sug‘orma dehqonchilik keng tarqalgan hududlar) va past tekisliklar (cho‘l hududlari)dagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilariga tegishli agroturizm obyektlarining rivojlanish tendensiyalari prognozlari hisoblab topilgan (1, 2, 3-rasmlarga qarang).




1-rasm. Samarqand viloyati tog‘li hududlardagi agroturizm obyektlari sonining dinamikasi prognozi (MLP natijalari).

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Samarqand viloyatining tog‘li hududlarida, ayniqsa dengiz sathidan 1000-2000 m balandlikda joylashgan hududlarda, agroturizmni rivojlantirishga bo‘lgan qiziqish yuqori darajada. Ushbu hududlarning iqlim sharoiti, tabiiy manzaralari va qishloq xo‘jaligi madaniyati agroturizm uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. O‘rganishlar davomida aniqlanishicha, 2015-2023-yillar oralig‘ida bu hududlardagi agroturizm obyektlari sonining o‘sish koeffitsiyenti o‘rtacha 16,5ni tashkil qilgan (1-rasmga qarang). Prognoz natijalariga ko‘ra, 2032-yilga kelib ushbu hududdagi agroturizm obyektlari soni 30 taga yetishi kutilmoqda.

Mazkur natijalar Samarqand viloyatida agroturizmni strategik rivojlantirish bo‘yicha keyingi rejalarni tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Samarqand viloyatining sug‘orma dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan tekislik hududlarida agroturizm obyektlari soni keyingi yillarda barqaror o‘sib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlar agrar infratuzilma va tabiiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari tufayli agroturizm faoliyati uchun jozibador hududlarga aylanib bormoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2015-2023-yillar davomida agroturizm obyektlari sonining yillik

---

1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 22-noyabrdagi ” O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat geodezik koordinatalar va balandliklar tizimlarini o‘rnatish to‘g‘risida”gi 391-son qarori.

o'rtacha o'sish sur'ati 14% ni tashkil qilgan. Bu esa ushbu mintaqadagi iqtisodiy va turizm salohiyatining barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi.




2-rasm. Samarqand viloyati sug'orma dehqonchilikka asoslangan tekislik hududlaridagi agroturizm obyektlari sonining dinamikasi prognozi.

Model natijalariga qaraganda, o'sishning hozirgi tendensiyasi saqlanib qolsa, 2032-yilga kelib Samarqand viloyatining sug'oriladigan dehqonchilikka asoslangan tekislik hududlarida agroturizm obyektlari soni o'rtacha 27 taga yetishi kutilmoqda. Bu natijalar iqtisodiy va turizm faoliyatini diversifikatsiya qilish, qishloq xo'jaligi resurslaridan innovatsion foydalanish hamda mahalliy aholini agroturizm faoliyatiga jalb qilish orqali bu sohani yanada rivojlantirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi. Grafikda ko'rsatilgan prognoz (2-rasmga qarang) mazkur hududda agroturizmning uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy foydasini baholash uchun asosiy dalil sifatida foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.




3-rasm. Samarqand viloyati cho'lli hududlaridagi agroturizm obyektlari sonining dinamikasi prognozi (MLP natijalari).

Pasttekisliklar va cho'l-dasht hududlarida agroturizm obyektlarining soni yuqori va o'rta tekislik hududlari bilan solishtirganda nisbatan past ko'rsatkichlarga ega. Bu hududlardagi tabiiy sharoitlarning murakkabligi va resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlash mumkin. Shunga qaramay, ushbu mintaqalarda ham agroturizmni rivojlantirish uchun istiqbolli tendensiyalar kuzatilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda pasttekislik va cho'l-dasht hududlarida agroturizm obyektlari soni 10 tani tashkil etgan bo'lsa, model yordamida tuzilgan prognozlarga ko'ra, bu ko'rsatkich 2032-yilga kelib o'rtacha 23 taga yetishi kutilmoqda (3-rasmga qarang). Ushbu o'sish dinamikasi agroturizm faoliyatiga qiziqish ortib borayotganligini ko'rsatadi va mintaqaviy rivojlanishda muhim o'rin tutadi.

Albatta yuqorida keltirilgan raqamlar bugungi kunda eng samarali prognoz natijalarini koʻrsatib kelayotgan modellar natijasi boʻlsa-da, ushbu sohani rivojlanishiga, agroturizm obyektlari sonining ortishiga yuqorida sanab oʻtilgan bir qator ekzogen va endogen omillar taʼsir koʻrsatadi.

Tahlil natijalari viloyatdagi Urgut hamda Nurobod tumanlarining togʻli hududlaridagi xoʻjaliklarda asosan piyoda yoki velosipedda sayr qilish, ot minish, sport tadbirlari (koʻpkari) oʻtkazish, oʻtov, suzish havzalari, havo shari va changʻi uchish moslamalari kabi xizmatlarni tashkil etishga moyilligi yuqoriligini koʻrsatgan. Jomboy, Payariq, Ishtixon, Bulungʻur, Tayloq, Oqdaryo, Samarqand tumanlarining sugʻoriladigan dehqonchilikka moslashgan hududlarida esa turistlarga agroturizm obyektlarida oʻzi terib yeyish, toʻgʻridan-toʻgʻri savdo, tatib koʻrish, chorva mollarini oziqlantirish, seminarlar va hosil bayramlari oʻtkazish, baliq ovi kabi xizmatlarni oʻz xoʻjaliklarida tashkil etishga fermer va dehqonlarda yuqori xohish borligi aniqlangan. Paxtachi va Nurobod tumanlarining choʻl,dasht hududlaridagi qishloq xoʻjaligi korxonalarida tuya va ot minish, tuya suti degustatsiyasi, gulxan atrofida oʻtirish va chodirda tunash, dorivor giyohlarni terish, texnikalarni haydab koʻrish kabi xizmatlarni tashkil etish imkoniyatlari mavjudligi ilmiy asoslangan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, ushbu bobda agroturizmning rivojlanishi va oʻsishiga taʼsir qiluvchi asosiy omillar koʻrib chiqilib, ushbu sohaning koʻp qirrali xususiyati haqida har tomonlama tushuncha berildi. Koʻrinib turibdiki, agroturizmga iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va siyosiy omillarning kombinatsiyasi taʼsir qiladi.

Aholining daromad darajasi, bozor talabi va moliyalashtirish imkoniyatlari kabi iqtisodiy omillar qishloq xoʻjaligi korxonalarida agroturizmning tashkil etilishi va rentabelligiga bevosita taʻsir qiladi. Mahalliy infratuzilma, jumladan, transport, aloqa va mehmondoʻstlik xizmatlari ham agroturizm yoʻnalishlarini tashrif buyuruvchilar uchun qulay va jozibador qilishda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Bundan tashqari, siyosiy vaziyatlar, davlatning agroturizmni tashkil qilishiga nisbatan bergan imtiyozlari va tartibga soluvchi qoʻllab-quvvatlashning rolini eʼtibordan chetda qoldirib boʻlmaydi, chunki ular sektorning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi. Ijtimoiy va madaniy omillar, shu jumladan barqaror va tajribali sayohatga boʻlgan isteʼmolchilarning afzalliklarini oʻzgartirish agroturizm tajribasiga boʻlgan talabning oshishiga yordam berdi. Ushbu tashabbuslarni ishlab chiqishda mahalliy hamjamiyat va fermerlarning ishtiroki madaniy meros hamda dehqonchilik anʼanalarini saqlab qolish bilan birga, ijtimoiy hamjihatlik va qishloq taraqqiyotini yanada kuchaytiradi.

Atrof-muhitning barqarorligi muhim komponent boʻlib, ekologiyani saqlash va tabiiy resurslardan masʼuliyatli foydalanish agroturizmning uzoq muddatli hayotiyligini taʼminlash uchun zarurdir. Shu bilan birga, iqlim oʻzgarishi ham qishloq xoʻjaligi, ham turizm uchun xavflarni kamaytirishda hal qilinishi kerak boʻlgan potensial muammolarni keltirib chiqaradi.

Demak, agroturizmni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlik, jamoatchilik ishtiroki, ekologik barqarorlik va qoʻllab-quvvatlovchi siyosat choralarini oʻzida mujassam etgan yaxlit yondashuvni talab qiladi. Qishloq taraqqiyoti vositasi sifatida agroturizm salohiyatini oshirish uchun ushbu oʻzaro bogʻliq omillarni tushunish va hal etish muhim boʻladi. Ushbu bobdagi fikrlar kelgusida agroturizmning oʻsishini optimallashtirish boʻyicha keyingi tahlil va tavsiyalar uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI


1. Baipai, R., Chikuta, O., Gandiwa, E., & Mutanga, C. N. (2021). A critical review of success factors for sustainable agritourism development. African Journal of Hospitality, Tourism and Leisure, 10(6), 1778-1793.
2. Ciolac, R., Adamov, T., Iancu, T., Popescu, G., Lile, R., Rujescu, C., & Marin, D. (2019). Agritourism-A Sustainable development factor for improving the ‘health’of rural settlements. Case study Apuseni mountains area. Sustainability, 11(5), 1467;
3. Mastronardi, L., Giaccio, V., Giannelli, A., & Scardera, A. (2015). Is agritourism eco-friendly? A comparison between agritourisms and other farms in Italy using farm accountancy data network dataset. SpringerPlus, 4, 1-12;
4. Bhatta, K., & Ohe, Y. (2020). A review of quantitative studies in agritourism: The implications for developing countries. Tourism and Hospitality, 1(1), 23-40.
5. Che, D. (2008). Agritourism and its potential contribution to the agricultural economy. CABI Reviews, (2007), 7-pp.
6. Tanina, A., Konyshev, E., & Tsahaeva, K. (2020, October). Agritourism development model in digital economy. In Proceedings of the 2nd International Scientific Conference on Innovations in Digital Economy (pp. 1-6);
7. Togʻaymurodov E.B. Qishloqda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yoʻllari (Samarqand viloyati misolida): avt i.f.f.d. (PhD). Samarqand, 2023, – 61 b.;
8. Joeliaty, J. (2024). The Impact of Infrastructure Development, Education, Tourism, and Agriculture on Regional Economic Growth in Indonesia. The Es Economics and Entrepreneurship, 2(03), 193-207;
9. Baharudin, N., Jaafar, M. N., & Ismail, A. (2024). The critical success factors of agrotourism real estate investment. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, 14(3).

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 10**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz